

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TURMANOVA RAYMASH MAXMUTOVNA

**3d-METALLAR ATOMLARI KIRISHMA TO‘PLAMLARINING
KREMNIY ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Turmanova Raymash Maxmutovna

3d-metallar atomlari kirishma to'plamlarining kremniy elektrofizik
xususiyatlariga ta'siri 3

Турманова Раймаш Махмутовна

Влияние примесных скоплений атомов 3d-металлов на
электрофизические свойства кремния 23

Turmanova Raymash Maxmutovna

Influence of impurity clusters of 3d-transition metal atoms on the
electrophysical properties of silicon 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TURMANOVA RAYMASH MAXMUTOVNA

**3d-METALLAR ATOMLARI KIRISHMA TO‘PLAMLARINING
KREMNIY ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM584 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turgunov Nozimjon Abdumannopovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ayupov Kutub Sautovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Boboyev Akramjon Yo'ldashboyevich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «17» 09 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz)

Dissertatsiya bilan Axborot resurs markazida tanishish mumkin («18» raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «03» 09 kuni tarqatildi.
(2026 yil «03» 09 dagi 78 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh. B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J. J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

O. X. Qo'ldashov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda butun dunyoda mikroelektronika qurilmalarini ishlab chiqarishda turli xil kirishmalar bilan legirlangan kremniy, germaniy, galliy arsenid, galliy fosfid kabi va boshqa yarimo'tkazgich materiallar keng qo'llanilmoqda. Yarimo'tkazgich hajmida kirishmalarning mavjudligi uning kristall tuzilishida nuqsonlarning paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa yarimo'tkazgich xususiyatlariga ta'sir qiladi. Mazkur jihatdan 3d-o'tuvchi metallari kirishmalari bilan legirlangan monokristall kremniyning xususiyatlariga kirishma nuqsonlarining ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqdi. Chunki ushbu kirishmalar bilan legirlangan kremniy, uning asosida yaratiladigan yarimo'tkazgich asboblarning elektrofizik xususiyatlarini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan bog'liq holda kirishma to'plamlarining o'ziga xos xossalari va ularning yarimo'tkazgich kremniy xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon miqyosida yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasida turli usullar bilan legirlash jarayonida yarimo'tkazgichli materiallarning yuzasida va hajmida hosil bo'lgan kirishma to'plamlarining morfologik parametrlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jadal o'tkazilmoqda. Shu jumladan, kremniyni turli xil kirishmalar bilan diffuziyaviy legirlash texnologik jarayonlarini optimallashtirishga oid tadqiqotlar, chunki hozirgi kunga qadar kremniy turli yarimo'tkazgichli asboblarni ishlab chiqarishda asosiy materiallardan biri hisoblanadi. Shu sababli, songi vaqtlarda 3d-o'tish metallari bilan legirlangan, hajmida har xil morfologik parametrlarga ega ko'p komponentli kirishma to'plamlari hosil bo'lgan kremniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Respublikamizda turli kirishmalar bilan legirlangan kremniy xususiyatlarini va ular asosida yaratilgan qurilmalar parametrlarini boshqarish sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda kremniy hajmida 3d-o'tuvchi metallar atomlari kirishma to'plamlarining shakllanish va parchalanish jarayonlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-mart 2021-yildagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5032 son qarorida "fizika sohasida ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, iqtisod tarmoqdagi muommolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish; ilmiy tadqiqotlarning va innovatsiya ishlarining natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish..."¹ masalalari qo'yilgan. Bu yo'nalishda tashqi omillarga (harorat, bosim, nurlanish) sezgir yangi yarimo'tkazgich materiallarini va ularning asosida ko'p qatlamli strukturalarni yaratish sohasida olib borilayotgan ishlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi² Farmoni, O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 28.01.2022 yildagi PF-60-son

Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”³, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴ Qarorolari, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: III. «Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirga qadar kremniyda 3d-o‘tuvchi metallar diffuziya mexanizmlari, kirishma atomlarning turli xil nuqsonlarini hosil bo‘lish jarayonlari, shuningdek, ularning kremniy elektrofizik, fotoelektrik xususiyatlari ta‘siri ko‘plab chet el olimlari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A. Milns, K. Graff, H. Mehrer, H. Kitagawa, S. K. Estreicher, M. Yoshida, H. Aalberts, J. Lindroos, S. Tanaka, D. Neamen, D. Tobnaghi va boshqa olimlar tomonidan ham bu sohada turli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan va yuqori natijalarga erishilgan.

Kremniyda turli nuqsonlar va kirishma komplekslarining shakllanishi, ularning fizik xususiyatlari, shuningdek, harorat va nurlanishning legirlangan kremniy va uning asosidagi qurilmalarining elektrofizik parametrlariga ta‘siri A. Istratov, V. Orlov, A. P. Dolgolenko, N. Yarikin, G. P. Gaydar, M. I. Timoshin va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda akademiklar M. Bahadixonov, S. Zaynabiddinov, R. Muminov, A. Mamadalimov, professorlar K. Abdurahmonov, X. Daliev, Sh. Utamuradova va ularning shogirdlari tomonidan turli kirishma atomlarining radiatsiyaviy va termik nuqsonlar bilan o‘zaro ta‘siri hamda ularning kremniyda kechadigan rekombinatsiya jarayonlariga, shuningdek, tashqi omillarning kirishma nuqsonlari holatiga ta‘siri o‘rganilgan.

Biroq, hozirgacha yuqori haroratli diffuziya usulida nikel va mis bilan legirlangan kremniyda hosil bo‘lgan kirishma to‘plamlarining strukturaviy tuzilishi, element tarkibi va kirishma to‘plamlarining parchalanish jarayonlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarim-

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 03.03.2021 yildagi PQ-5011-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 16.02.2023 yildagi PQ-57-son

o'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IL-652205571 «Turli chuqur sathga ega yarimo'tkazgichlarning optik, sig'imli va rezonans xususiyatlarini tahlil qilish asosida barqaror parametrlarga ega yuqori samarali kremniy tuzilmalarini yaratish» (2023-2024 yy.) mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kremniyning elektrofizik xususiyatlariga nikel va mis atomlari kirishma to'plamlarining ta'sirini, shuningdek, tashqi omillar (harorat, γ -nurlanish) ta'sirida kirishma to'plamlarining shakllanish va parchalanish jarayonlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

n-Si<Ni>, n-Si<Cu> va n-Si<Ni,Cu> namunalarning elektrofizik parametrlari va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish;

n-Si<Cu> va n-Si<Ni,Cu> namunalarda kirishma atomlari xatti-harakatlari va o'zaro ta'sirini rentgenostrukturaviy tahlil yordamida o'rganish;

alohida (n-Si<Ni> va n-Si<Cu>) va kombinatsiyaviy (n-Si<Ni,Cu>) diffuziya asosida olingan namunalarning hajmida shakllangan kirishma to'plamlarining morfologiyasini o'rganish va parametrlarini aniqlash;

nikel va mis bilan alohida va kombinatsiyaviy diffuziya usulida legirlangan kremniyning elektrofizik hamda strukturaviy xususiyatlariga tashqi omillarning (termik tavlash va nurlanish) ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning ob'yekti nikel va mis bilan alohida (n-Si<Ni> va n-Si<Cu>) va kombinatsiyaviy (n-Si<Ni,Cu>) diffuziya usulida legirlangan monokristall kremniy namunalari.

Tadqiqotning predmeti kremniy monokristalida nikel va mis kirishma atomlari mikro- va nanoto'plamlarining shakllanish jarayonlari, shuningdek, ularning termik tavlash va radiatsiya ta'sirida parchalanish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni bajarishda quyidagi usullardan foydalanildi: kremniy monokristallaridagi nikel va mis kirishma to'plamlarining strukturaviy tuzilishi va element tarkibini aniqlash uchun yuqori aniqlikdagi zamonaviy elektron mikroskopiya usullari, xususan, Superprobe JXA-8800R (JEOL) elektron-zondli mikroskop va JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskopidan foydalanildi, nikel va mis bilan legirlangan namunalarning strukturaviy tuzilishi tahlili rentgen strukturaviy tahlil usuli bilan XRD-6100 difraktometri yordamida amalga oshirildi, namunalar hajmidagi optik faol uglerod va kislorod konsentratsiyasini aniqlash IQ spektrometriyasi usuli bilan FSM-2201 markali Fure-IQ spektrometri yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

kremniyni Ni va Cu kirishmalari bilan bir vaqtda yuqori haroratli ($t = 1200\text{ }^{\circ}\text{C}$) diffuziyaviy legirlashda namunalar hajmida turli geometrik shakllarga ega kirishma atom to'plamlari shakllanishi va ularning o'lchamlari 10 nm dan 3 mkm gacha yetishi aniqlangan;

kremniyni $t = 1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda nikel va mis kirishmalari bilan bir vaqtda diffuziyaviy legirlash jarayonida namunalar hajmida optik faol kislorod konsentratsiyasi $\sim 30\%$ ga, optik faol uglerod konsentratsiyasi esa $\sim 20\%$ ga kamayishi aniqlangan;

γ -nurlanish ta'sirida n-Si<Ni,Cu> namunalari hajmida SiCu_3 , CuO , Si_2Ni va SiNi kabi kirishmalar birikmasining parchalanishi va kislorod, nikel va mis kirishma atomlari ishtirokidagi Cu_4O_3 , Ni_3Si , $\text{Cu}_{15}\text{Si}_4$ kabi yangi birikmalar shakllanishi aniqlangan;

ilk bor $t = 1000^\circ\text{C}$ haroratda 15 daqiqa davomida, $t = 1200^\circ\text{C}$ haroratda esa 10 daqiqa davomida termik ishlov berish ta'sirida Ni va Cu bilan bir vaqtda legirlangan Si namunalari hajmida kirishma nanoto'plamlarining parchalanishi aniqlangan.

γ -nurlanishning 10^8 rad dozasi ta'sirida n-Si<Ni>, n-Si<Cu> va n-Si<Ni,Cu> namunalarning solishtirma qarshilik qiymati mos ravishda 82, 18 va 1,5 marta ortishi aniqlangan, bu esa Ni va Cu bilan bir vaqtda legirlangan kremniy namunalarning nurlanishga chidamli ekanligini ko'rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oldindan belgilangan elektrofizik parametrlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgich materiallarni olishni ta'minlaydigan kremniy monokristalini Cu va Ni kirishmalari bilan diffuziya qilishning texnologik sharoitlari ishlab chiqildi;

nikel va mis bilan legirlangan kremniyda kirishma to'plamlarining morfologik parametrlarini maqsadli boshqarishni ta'minlovchi, namunalarni diffuziyadan keyingi termik ishlov berish va sovutish tezligining rejimlari aniqlandi;

nikel va mis atomlari ishtirokidagi yangi kirishma birikmalarining shakllanish jarayonlarini diffuziyadan keyin radiatsiyaviy ishlov berish sharoitlarini tanlash orqali boshqarish imkoniyati aniqlandi;

nikel va mis bilan legirlangan kremniyning elektrofizik xususiyatlarini termik va radiatsiyaviy barqarorligini oshirish usullari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliliği nikel va mis bilan legirlangan kremniy monokristallarining elektrofizik xususiyatlarini, ularda diffuziya jarayonida va undan keyin turli xil tashqi omillar ta'sirida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni tadqiq qilishda umumiy qabul qilingan standart va keng qo'llaniladigan usullaridan foydalanish bilan asoslanadi. Elektrofizik parametrlarni aniqlash uchun Xoll effektiga asoslangan, o'lchash xatoligi 0,0001% bo'lgan zamonaviy Ecopia HMS-7000 qurilmasi foydalanildi. Nikel va mis bilan legirlangan monokristall kremniyda hosil bo'lgan kirishma atomlari to'plamlarining strukturaviy xususiyatlari va morfologik o'ziga xosligi o'lchash xatoliklari $0,001 \div 0,004\%$ oralig'ida bo'lgan XRD-6100 rentgen difraktometri va JSM-IT 200 markali skanerlovchi elektron mikroskop bilan aniqlandi. Namuna hajmida optik faol uglerod va kislorod konsentratsiyasi aniqlash o'lchov xatoligi $0,01 \div 0,02\%$ oralig'ida bo'lgan zamonaviy Fure-IQ spektrometrida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kirishma atom to'plamlarining shakllanish va parchalanish qonuniyatlari, γ -nurlanish va yuqori harorat ta'sirida n-Si<Ni>, n-Si<Cu> va n-Si<Ni,Cu> namunalarning elektrofizik xususiyatlarining o'zgarishi, radiatsiya ta'sirida yuzaga kelgan radiatsion-induksiyaviy jarayonlar, fazaviy o'zgarishlar va legirlangan namunalarda optik faol kislorod va uglerod konsentratsiyasining o'zgarishi haqidagi fizik tasavvurlarni kengaytirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan bog'liqliklar va aniqlangan mexanizmlardan foydalanib, ma'lum elektrofizik xususiyatlarga ega materiallarni

olish maqsadida kremniyga termik ishlov berish va legirlashning texnologik rejimlarini optimallashtirishdan iborat. Natijalar mikro va optoelektronika, kosmik texnikalar va yadro energetikasi uchun radiatsiyaviy barqaror yarimo'tkazgichli strukturalarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

3d-metall atomlari kirishma to'plamlariga ega kremniy monokristalining elektrofizik xususiyatlarini tashqi ta'sirlar vositasida boshqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$t=1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda $\langle\text{Ni,Cu}\rangle$ va $\langle\text{Ni,Fe}\rangle$ kirishmalari bilan kremniyni bir vaqtda diffuziyaviy legirlashda, namunalar hajmida turli geometrik shaklga va 10 nm dan 3 mkm gacha bo'lgan o'lchamga ega kirishma to'plamlarining shakllanishi aniqlangan, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibida matritsa va asosiy kirishma elementi nikel va mis atomlaridan tashqari texnologik kirishmalar hisoblangan kislorod va uglerod atomlarining $0,01\div0,001\%$ foiz ulushida mavjudligi; $-153\div47\text{ }^{\circ}\text{C}$ harorat oralig'ida $n\text{-Si}\langle\text{Cu}\rangle$ namunalaridagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi deyarli 8 baravar ortishi va zaryad tashuvchilarning harakatchanligi bir darajadan ko'proq kamaygan. Olingan ilmiy natijalardan Belorusiya FAning materialshunoslik bo'yicha ilmiy-amaliy markazida 1.3.1 "Kremniyli asboblarda strukturalarida radiatsiyaviy-induktsiyalangan markazlarining nuqson-kirishma muhandisligi" mavzusidagi loyihasining "Kondensirlangan holat fizikasi va yangi funktsional materiallarni yaratish hamda ularni olish texnologiyalari" kichik dasturini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Belorusiya FAning materialshunoslik bo'yicha ilmiy-amaliy markazining 2024 yil 12 noyabrdagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish Ni va Cu bilan legirlangan kremniy asosida olingan diodlar va MDYa-strukturalarning funktsional imkoniyatlarini oshirishga imkon bergan.

kremniydagi nikel va temir kirishma atomlari to'plamlari strukturaviy tuzilishlarining diffuziya harorati va diffuziyadan keyingi namunalarni sovutish tezligiga bog'liqligi aniqlangan: $t = 1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ diffuziya haroratida tez sovutilgan ($\geq 200\text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$) namunalarda o'lchami bir necha yuz nanometrgacha bo'lgan turli xil geometrik shakllarga ega kirishma nanobirikmalarining hosil bo'lishi kuzatildi. $t = 1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda 20 daqiqa davomida termik tavlash ta'sirida o'lchami 400 nm gacha bo'lgan kirishma to'plamlari parchalanishi aniqlandi. Olingan ilmiy natijalar "FOTON" aksiyadorlik jamiyatida kremniy asosidagi yarimo'tkazgichli elektron qurilmalar ishlab chiqarishda foydalanilgan («O'zeltexsanoat» aktsionerlik jamiyatining 2024 yil 11 iyuldagi №04-3/1124-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish nikel va mis bilan legirlangan kremniy eksperimental namunalarning elektrofizik parametrlarini termik tavlash ta'sirida boshqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 11 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ma'ruza bilan qatnashilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 17 ta ilmiy ishda, shulardan 4 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan 3 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 35 ta rasm, 7 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishning aprobatsiyadan o'tganligi va nashr qilinishi, shuningdek dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

“Yarimo'tkazgichlardagi 3d-metall kirishma atomlarining to'plamlari” deb nomlangan birinchi bobda, o'tuvchi metall elementlari bilan legirlangan monokristall kremniy hajmida va yuzasida shakllangan nuqsonlarning tabiati, kirishma to'plamlarining hosil bo'lishi va turli tashqi omillar ta'sirida ularning parchalanishi haqida adabiyotlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonlik va chet el olimlari tomonidan yarimo'tkazgichlarda yuzaga keladigan turli xil effektlarni va kirishma atomlarining ushbu effektlarga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bobning so'ngida adabiyotlar sharhi bo'yicha xulosalar berilgan.

“3d-o'tuvchi metall elementlari bilan legirlangan kremniyning elektrofizik, optik va strukturaviy xususiyatlarini tadqiq qilish usullari” deb nomlangan ikkinchi bobda yarimo'tkazgichlarida hosil bo'lgan kirishma atom to'plamlarining morfologik parametrlarini aniqlash, shuningdek, tayyorlangan namunalarning elektrofizik va strukturaviy parametrlarini o'lchash bo'yicha tadqiqot usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Elektrofizik parametrlar Ecopia-7000 qurilmasi yordamida o'lchangani ko'rsatilgan.

Kremniy monokristallarida hosil bo'lgan kirishma atom to'plamlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash uchun dastlabki va legirlangan kremniy namunalarning fazaviy va strukturaviy fragmenti rentgen difraksiya tahlili yordamida o'rganilgan. Bunda strukturaviy tadqiqotlar zamonaviy XRD 6100 rentgen difraktometrida, bosqichma-bosqich skanerlash rejimida, $\lambda = 0,15405$ nm to'liq uzunlikli CuK_α nurlanishidan foydalangan holda amalga oshirilgan.

JSM-IT 200 kompakt skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) kristallarda hosil bo'lgan kirishma to'plamlarining kattalashtirilgan tasvirlarini olish va ularning alohida nuqtalari tarkibini elementar tahlil qilish qobiliyatiga ega. Mikroskopni boshqarishning zamonaviy kompyuter tizimi ancha sodda bo'lib, boshqarishning barcha funksiyalari avtomatlashtirilgan.

Kremniy monokristallarida hosil bo'lgan Cu va Ni kirishma to'plamlarining tarkibini va ular orasida hosil bo'lgan bog'lanishlarning xususiyatlarini batafsilroq o'rganish maqsadida IK spektroskopiya usullaridan foydalanildi.

“Kirishma to'plamlarining morfologiyasi va ularning kremniyning elektrofizikaviy, strukturaviy va optik xususiyatlariga ta'siri” deb nomlangan uchinchi bobda nikel va mis bilan legirlangan kremniy namunalarining elektrofizik parametrlari va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari, shuningdek, optik faol kislorod va uglerod konsentratsiyasini aniqlash natijalari keltirilgan.

Kremniy monokristallari hajmidagi kirishma atomlari to'plamlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash rentgen-strukturaviy tahlil uslubida amalga oshirildi, bunda dastlabki namunalar hamda nikel va mis bilan legirlangan kremniy namunalarining fazaviy va strukturaviy xossalari tadqiq qilindi.

1-rasmda n-Si namunalarining difraktogrammasi keltirilgan. Difraktogramma tahlili intensivligi turlicha bo'lgan ikkita alohida difraksiya refleksi mavjudligini ko'rsatadi. Eng katta intensivlikka ega bo'lgan refleks $2\theta = 28 \div 29^\circ$ burchak oralig'ida kuzatiladi va monokristall kremniyning (Si(111)) kristallografik tekisligidan aks etishiga to'g'ri keladi. Ikkinchi refleks sezilarli darajada past intensivlikka ega bo'lib, $2\theta = 25 \div 26^\circ$ burchaklar oralig'ida qayd etilgan. Bu signal amorf yoki oksid fazasi – kremniy dioksidi (SiO_2) dan akslangan refleks sifatida aniqlanadi, uning hosil bo'lishi namunalarni tayyorlash yoki qayta ishlash paytida namuna yuzasining tabiiy yoki texnologik oksidlanishi bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

Olingan natijalardan foydalanib, kristalldagi tekisliklar orasidagi masofani Vulff-Bregg tenglamasi yordamida aniqlash mumkin:

$$n\lambda = 2d\sin\theta, \quad (1)$$

bu yerda: d – tekisliklararo masofa, θ – Vulf-Bregg burchagi, n – difraksiya maksimumining tartibi, $\lambda = 0,15405 \text{ nm}$ – CuK_α nurlanishining to'lqin uzunligi.

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, SiO_2 birikmasiga mos keladigan $2\theta = 25,61^\circ$ burchak ostida kuzatilgan difraksiya refleksi uchun tekisliklararo masofa $d = 0,347 \text{ nm}$ ga teng. Xuddi shunday, $2\theta = 28,39^\circ$ burchakda kuzatilgan monokristall kremniyga mos keluvchi (Si) refleks uchun hisoblangan tekisliklararo masofa $d = 0,628 \text{ nm}$ ga teng.

Nanokristallitlarning o'rtacha o'lchami ikki usul bilan hisoblab chiqiladi: birinchisi SEM usuli bilan WXM dasturi yordamida to'g'ridan-to'g'ri hisoblash orqali, ikkinchisi esa rentgenografiya usuli bilan Scherrer formulasi yordamida amalga oshiriladi:


$$L = \frac{K\lambda}{\beta\cos\theta} \quad (2)$$

bu yerda L – kristallitning o'rtacha o'lchami, λ – rentgen nurlanishining to'lqin uzunligi, β – radianlarda olingan yarim maksimum (FWHM), θ – Breg burchagi va $K = 0.95$ Sherrer doimiysi.


2-rasmda n-Si<Cu> namunasiining difraktogrammasi keltirilgan. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, difraktogrammada turli intensivlikdagi bir nechta reflekslar kuzatiladi. Eng katta intensivlikka ega bo'lgan refleks kristallografik yo'nalishi

(111) bo'lgan monokristall kremniy (Si) ga to'g'ri keladi. Ushbu refleksda L va d qiymatlari mos ravishda 0,75 nm va 0,61 nm ga teng. Bu refleks $2\theta = 28,97^\circ$ burchakda ko'rinadi. Dastlabki namunaning ushbu refleksiga nisbatan bu refleks katta qiymatli burchaklar tomon biroz siljigan, burchak farqi $\Delta\theta = 0,57^\circ$ ga teng va bu diffuziyadan keyin matritsa elementi Si kristall tuzilishining deformatsiyaga uchraganligini ko'rsatadi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, SiO_2 ga mos keladigan $2\theta = 25,61^\circ$ burchakda kuzatilgan kristallitning o'rtacha o'lchami $L = 2,82$ nm. Si ga mos keladigan va refleksi $2\theta = 28,39^\circ$ burchak ostida kuzatilgan kristallitning o'rtacha o'lchami 2,84 nm ni tashkil etadi. $2\theta = 26,15^\circ$ burchak ostida kuzatilgan refleks SiO_2 birikmasiga to'g'ri keladi va uning uchun L va d qiymatlari mos ravishda 0,743 nm va 0,34 nm ga teng. Keyingi refleks $37,65^\circ$ burchak ostida zaif intensivlikda aks etadi va SiC birikmasiga to'g'ri keladi. Ushbu refleksga mos keladigan kristallitning o'rtacha o'lchami L va tekisliklararo masofasi d mos ravishda 1,02 nm va 0,955 nm ga teng.




1-rasm. Dastlabki n-Si namunasining rentgenogrammasi.




2-rasm. Mis bilan legirlangan n-Si<Cu> namunasining rentgenogrammasi.

Ushbu difraktogrammada mis kirishmasi atomlari bog'lariga mos keladigan yana bir nechta reflekslar ko'rinadi. Masalan, Cu_5Si_4 birikmasi refleksi ikkita har xil burchaklarda ko'ringan. Ularning birinchisi ikkinchisiga nisbatan kuchliroq intensivlikka ega. U $2\theta = 43,9^\circ$ burchak ostida akslanadi va unga mos keluvchi kristallitning o'rtacha o'lchami L va tekisliklararo masofa d mos ravishda 0,624 nm va 0,824 nm ga teng. Cu_5Si_4 birikmasiga to'g'ri keladigan ikkinchi refleks $80\div 85^\circ$ burchak oralig'ida nisbatan zaif intensivlikda kuzatiladi. Yana $2\theta = 64,25^\circ$ burchak ostida kuzatilgan boshqa bir refleks, CuP_2 birikmasiga tegishli bo'lib, unga tegishli kristallitning o'rtacha o'lchami $L = 0,68$ nm, tekisliklararo masofa esa $d = 0,72$ nm ni tashkil etadi. Undan keyin Cu_2O birikmasi ga mos keladigan yana bir refleks kuzatilgan. U $2\theta = 77,38^\circ$ burchak ostida akslanadi va uning uchun L va d qiymatlari mos ravishda 0,618 nm va 0,739 nm ga teng.

Optik faol kirishma atomlarning fon konsentratsiyasini aniqlash IQ-Fure spektroskopiyasi usulida FSM 2201 qurilmasi yordamida amalga oshirildi. 3-rasmida dastlabki namuna n-Si va n-Si<Cu> namunalardagi optik faol kislorod konsentratsiyasi o'zgarishining Fure-IQ spektrogrammasi fragmenti keltirilgan.



3-rasm. O'tkazish ko'effitsientining to'liqin vektoriga bog'liqlik grafigi. 1-dastlabki namuna, 2- n-Si<Cu> namunasi.



4-rasm. O'tkazish ko'effitsientining to'liqin vektoriga bog'liqlik grafigi. 1-dastlabki namuna, 2-n-Si<Cu> namunasi.

Optik faol kislorod konsentratsiyasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_O^{\text{opt}} = 3.3 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \ln \frac{I}{I_0}, \quad (3)$$

bu yerda: I va I_0 – mos ravishda, tushayotgan va o'tayotgan nurning intensivliklari, d – namunaning qalinligi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, n-Si<Cu> namunalarida optik faol kislorod konsentratsiyasi dastlabki namunaga nisbatan 49% ga kamayadi, bu esa barqaror oksid birikmalarining, masalan, SiO_2 , Cu_2O ning hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

4-rasmda dastlabki va n-Si<Cu> namunalaridagi optik faol uglerod konsentratsiyasi o'zgarishi IK-Fure spektrogrammasining fragmenti keltirilgan. Optik faol uglerod konsentratsiyasi (4) formula yordamida hisoblanadi:

$$N_C^{\text{opt}} = 1.1 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \ln \frac{I}{I_0}, \quad (4)$$


bu yerda: I va I_0 – mos ravishda, tushayotgan va o'tayotgan nurning intensivliklari, d namunaning qalinligi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, n-Si<Cu> namunalaridagi optik faol uglerod konsentratsiyasi dastlabki namunaga nisbatan 28% ga kamaygan.

Shunday qilib, rentgenostrukturaviy tahlil uslubi bilan n-Si<Cu> namunalari hajmida turli elementli tarkibga ega bir nechta birikmalar, masalan, kremniy dioksid (SiO_2), kremniy karbid (SiC), mis silitsid birikmalari (Cu_5Si_4), mis oksidi (Cu_2O) va mis fosfidi (CuP_2) kabi birikmalari hosil bo'lganligi aniqlandi. Ushbu fazalarning mavjudligi legirlovchi kirishmalar va matritsa atomlari orasida murakkab kimyoviy reaksiyalar sodir bo'lganini tasdiqlaydi, bu esa materialning tuzilish va elektrofizik xususiyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Shuningdek, spektroskopik tajribalardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, n-Si<Cu> namunalarda optik faol kislorod va uglerod konsentratsiyasi dastlabki namunalarga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bu kristal hajmida SiO_2 , SiC va CuO_2 kabi bir qator ikkilamchi fazalarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi rentgen strukturaviy tahlili natijalari bilan tasdiqlangan.

Shuningdek, n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalaridagi kirishma to'plamlarning strukturaviy tuzilishi va kimyoviy tarkibi JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskop yordamida o'rganildi.

Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, diffuziyadan keyingi sovutish tezligiga qarab, Si<Ni> namunalari hajmida turli shakl va o'lchamdagi kirishma to'plamlari kuzatiladi (5-rasm). Yuqori sovutish tezligida ($v_{\text{sov}} = 200 \text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$) asosan ignasimon, disksimon, linzasimon va sferik shakllarga ega bo'lgan nisbatan kichik o'lchamli ($d < 10^{-6} \text{ m}$) pretsipitatlar hosil bo'ladi (5 a-rasm).



5-rasm. Kremniydagi nikel kirishma to'plamlari:


a – tez sovutilgan ($v_{\text{sov}}=200 \text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$) namunalarda; b – sekin sovutilgan ($v_{\text{sov}}=1 \text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$) namunalarda.

Sekin sovutilgan ($v_{\text{sov}} = 1 \text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$) namunalarda hajmida o'lchamlari bir necha mikrometrgacha etadigan kirishma atom pretsipitatlari hosil bo'lishi kuzatilgan bo'lib, ularning aksariyati sfera shakliga ega (5 b-rasm).

6-rasmda diffuziyadan so'ng tez sovutilgan n-Si<Ni> namunasi hajmida hosil bo'lgan $\sim 700 \text{ nm}$ o'lchamdagi linzasimon kirishma to'plamlarining kimyoviy tarkibini aniqlash natijalarini keltirilgan.


Ko'rinib turibdiki, nanobirikmalar hajmidagi Ni atomlarining ulushi 23,23%, Si atomlarining ulushi 75,42%, temir atomlarining ulushi 0,26%, xrom atomlarining ulushi 0,31%, kislorod atomlarining ulushi 0,43%, uglerod atomlarining ulushi 0,35%. Bu ko'rsatkichlar nanobirikmaning butun hajmi bo'ylab sezilarli darajada farq qilmaydi.

Sekin sovutilgan Si<Ni> namunalarda o'tkazilgan kimyoviy tarkib tahlillar natijalari, o'lchami $\sim 2 \text{ mkm}$ ga yetadigan sferik mikrobirikmalarning miqdoriy parametrlarini aniqlash imkonini berdi. Ma'lumki, mikrobirikmada Si va Ni atomlari bilan birga temir, xrom, kislorod va uglerod kabi texnologik kirishma atomlari ham mavjud (7-rasm). Ushbu mikrobirikmaning kimyoviy tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, uning markaziy qismida Ni atomlarining foiz ulushi 52,58%, Si atomlari – 45,38%, temir atomlari – 0,42%, xrom atomlari – 0,31%, kislorod atomlari – 0,73% va uglerod atomlari – 0,58% ni tashkil etadi. Mikrobirikmalar yuzasiga yaqin joylarda Ni atomlarining foiz ulushi 24,44%, kremniy atomlari – 74,14%, temir atomlari – 0,31%, xrom atomlari – 0,24%, kislorod atomlari – 0,55% va uglerod atomlari – 0,32% ni tashkil etadi. Bu natijalar mikrobirikmaning markaziy va yuzaga yaqin qismida asosiy va texnologik kirishma atomlari soni turlicha ekanligini ko'rsatadi. Ushbu qiymatlar mikrobirikmaning markazidan yuzasiga qarab kamayadi.




6-rasm. Tez sovutilgan n-Si<Ni> namunasidagi ~700 nm o'lchamdagi linzasimon nanobirikma element tarkibining to'liq spektri.


Shuningdek, mis bilan legirlangan kremniy namunalari kimyoviy tarkibini aniqlash maqsadida mikroskopik tadqiqot ham o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tez sovutilgan n-Si<Cu> namunalarda turli shakl va o'lchamdagi kirishma atomlari to'plamlari kuzatilgan. Kirishma atomlari to'plamlarining o'lchami 800 nm gacha yetgan (8-rasm).



7-rasm. Sekin sovutilgan n-Si<Ni> namunadagi ~2 mkm o'lchamli sferik kirishma mikrobirikmalari element tarkibining to'liq spektri.



8-rasm. Tez sovutilgan n-Si<Cu> namunalarida mis kirishma to'plamlari.




9-rasm. Tez sovutilgan n-Si<Cu> namunasidagi ~800 nm o'lchamdagi sferasimon to'plamlarning element tarkibining to'liq spektri.


9-rasmda diffuziyadan so'ng tez sovutilgan n-Si<Cu> namuna hajmida hosil bo'lgan ~ 800 nm o'lchamdagi sfera shaklidagi kirishma to'plamlarining kimyoviy tarkibi keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, nanobirikmalar hajmidagi Cu atomlari foiz ulushi 29,53%, Si atomlari foiz ulushi 69,76%, kislorod atomlari foiz ulushi 0,39%, uglerod atomlari foiz ulushi 0,32% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar nanobirikmaning butun hajmida sezilarli darajada farq qilmaydi.

Nikel va mis atomlari bilan bir vaqtda legirlangan monokristall kremniyda hosil bo'ladigan kirishma to'plamlarining strukturaviy tuzilishi va optik xususiyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi tajribalar o'tkazildi. Kimyoviy va mexanik ishlov berilgan kremniy namunalarning yuzasiga VUP-4 qurilmasida 10^{-4} Torr vakuumda purkash yo'li bilan 3d-metal elementlariga mansub bo'lgan Ni va Cu atomlari

yotqizildi. Kremniy namunalarining bir tomoniga Ni atomlari 0,4 mkm qalinlikda, ikkinchi tomoniga esa mis atomlari 0,4÷0,5 mkm qalinlikda yotqizildi. Nikel va mis atomlarining kremniyga bir vaqtdagi diffuziyasi jarayoni gorizontol SUOL-4 pechida $t = 1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda 5 soat davomida amalga oshirildi. Diffuziya harorati platina-platinarodiy termojuftlari yordamida nazorat qilindi. Diffuziya jarayoni tugagandan so'ng namunalar ikki xil tezlikda sovutildi. Tez sovutishda tezlik $v_{\text{sov}} > 200\text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$ ni, sekin sovutish esa $v_{\text{sov}} > 0.05\text{ }^{\circ}\text{C}/\text{sek}$ ni tashkil qildi. Dastlabki va n-Si<Ni,Cu> namunalarning hajmida hosil bo'ladigan kirishma to'plamlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida rentgenstrukturaviy tahlil o'tkazildi. Tadqiqot natijalari 10- va 11-rasmlarda keltirilgan. Rentgenostrukturaviy tahlil natijalari o'rganilgan n-Si<Cu,Ni> namunalarining kristal tuzilishi dastlabki namunalarga nisbatan sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatdi. Rentgenogrammadagi eng intensiv refleks (111) kristallografik yo'nalishdagi Si ga to'g'ri keladi. Ushbu refleksda tekisliklararo masofa $d = 1,84\text{ nm}$ va kristallitning o'rtacha o'lchami $L = 0,474\text{ nm}$ bo'lib, dastlabki namuna ko'rsatkichlariga nisbatan L ning qiymati deyarli 6 baravar katta va d ning qiymati esa deyarli 3 baravar kichik. Ushbu o'zgarishlar Cu va Ni kirishma atomlari ta'siri ostida kristall panjarasining deformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan deb talqin qilinadi. Ularning kristall panjarasiga kirib borishi atomlararo masofalarning buzilishiga olib keladi, bu esa difraksiya reflekslarining parametrlariga ta'sir qiladi. $2\theta = 10,77^{\circ}$ burchak ostidagi kuzatilayotgan refleks SiC birikmasiga tegishli ekanligi aniqlangan, bu esa termik ishlov berish jarayonida kremniy bilan uglerod o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatadi.




10-rasm. n-Si namunasi difraktogrammasi.




11-rasm. n-Si<Ni,Cu> namunasi difraktogrammasi.

Keyingi $2\theta = 20,88^{\circ}$ burchak ostida kuzatilgan xarakterli refleks mis oksidi (CuO) ga to'g'ri keladi. Hisoblashlarga ko'ra, bu refleks $L = 2,805\text{ nm}$ va $d = 1,27\text{ nm}$ parametrlariga mos keladi, bu esa namunalarda diffuziya jarayonida hosil bo'lgan ikkinchi darajali mis fazasining mavjudligini tasdiqlaydi. Xususan, $2\theta = 44,12^{\circ}$ burchak ostida kuzatiladigan refleks alohida qiziqish uyg'otadi, u boshqa namunalarning rentgenogrammasida kuzatilmagan va uch komponentli SiCu_5Ni_8 birikmasiga tegishli. Ushbu fazaning aniqlanishi kremniy, mis va nikel o'rtasidagi ko'p komponentli o'zaro ta'sir ehtimolini ko'rsatadi, bu esa kremniyning kristall matritsada barqaror murakkab birikmalar hosil bo'lishiga olib keladi. Bunday fazalarning paydo bo'lishi namunaning elektrofizik xususiyatlariga, hamda uning issiqlik barqarorligi va strukturaviy birxilligiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. 12-rasmda dastlabki va n-Si<Ni,Cu> namunalardagi optik faol kislorod

konsentratsiyasi o'zgarishining IQ-Fure spektrogrammasi fragmenti keltirilgan. Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, n-Si<Ni,Cu> namunalarida optik faol kislorodning konsentratsiyasi 30% ga kamayadi. Bu shuni anglatadiki, yuqori haroratli diffuziyaviy legirlash jarayonida kislorod atomlari kirishma atomlari bilan bog' hosil qilib, metall oksidini hosil qiladi. Shu sababli, legirlangan namunalardagi optik faol kislorod konsentratsiyasi sezilarli darajada kamayadi.



12-rasm. O'tkazish koeffitsientining to'liq vektoriga bog'liqlik grafi: 1- dastlabki namuna, 2-n-Si<Ni,Cu> namunasi.




13-rasm. O'tkazish koeffitsientining to'liq vektoriga bog'liqlik grafi: 1- dastlabki namuna, 2-n-Si<Ni,Cu> namunasi.

13-rasmda dastlabki va n-Si<Ni,Cu> namunalardagi optik faol uglerod konsentratsiyasining o'zgarishi IQ-Fure spektrogrammasi fragmenti keltirilgan. Hisoblashlar n-Si<Ni,Cu> namunalarida optik faol uglerod konsentratsiyasi dastlabki namunaga nisbatan deyarli 20% ga kamayganini ko'rsatadi. Yuqori haroratli termik ishlov berish oqibatida kirishmalarning o'zaro ta'siri uglerodning panjarada qayta taqsimlanishiga va uning optik jihatdan nofol holatlarga o'tishiga sabab bo'lgan


“Si<Cu,Ni> namunalarining xususiyatlariga tashqi omillarning ta'siri” deb nomlangan to'rtinchi bobda harorat va radiatsiyaviy nurlanishning Si<Cu,Ni> namunalarining elektrofizik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

14-rasmda n-Si<Ni,Cu> namunasining $t = 1200^\circ\text{C}$ haroratda termik tavlashdan oldingi va keyingi rentgenogrammasi keltirilgan. Termik tavlashdan keyin n-Si<Ni,Cu> namunasining rentgenogrammasida turli birikmalarga xos bo'lgan yangi reflekslarning hosil bo'lishini va ba'zi mavjud reflekslarning yo'qolishi kuzatilgan.

Namunaning termik tavlashdan oldingi rentgenogrammasida SiC, SiCu₃, CuO va SiNi birikmalariga mos keladigan reflekslar $0^\circ \div 25^\circ$ burchak oralig'ida kuzatilgan bo'lib (14 a-rasm), termik tavlashdan keyin ular rentgenogrammada kuzatilmagan. Bu burchak oralig'ida kristall kremniyga xos tartibli tuzilishga ega bo'lmagan amorf zona namoyon bo'lgan. Bunday zonalar haroratning o'zgarishi va kristall tuzilishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar natijasida paydo bo'lishi mumkin, bu esa uning bir qismining amorf holatga o'tishiga olib keladi. Si ga mos keladigan refleksning intensivligi termik tavlashdan keyin pasayishi va bu refleksning kichik burchaklar tomon siljishi kuzatildi (14 b-rasm,).



a)



b)

